

TIL TA'LIMIGA KO'RSATILAYOTGAN E'TIBOR HAMDA G'AMXO'RLIK

Qurbonova Feruza Ilhomovna

v/b. Dotsent f.f.f.d.

Qarshi davlat texnika universiteti

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası

e-mail: feruzaq42@gmail.uz

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'zbek tili bilimlarini baholashning bosqichli tizimini ishlab chiqish va bitiruvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini tekshirishning zamonaviy ilg'or usullari va vositalaridan, bu borada xorij tajribasidan foydalanish zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisi ona tili bilimining qaysi darajasida oliy o'quv yurtlarida (shuningdek, darajasidagi farqlarga qarab, qaysi oliy o'quv yurtida) o'qishga haqli bo'lishining mezonlarini aniq belgilab olish zarur. Bu esa baholash va test tizimida islohotlar qilish zaruratini taqozo etmoqda va oliy ta'lim muassasalarida suhbat va ijodiy ish (motivatsion xat, insho, esse kabi)lar yozish kabi sinovlarni joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: ona tili, o'qitish, sifat va samaradorlik, davlat tili, nufuz va obro'.

ABSTRACT: This article discusses the need to develop a step-by-step system for assessing Uzbek language knowledge and using modern advanced methods and tools for testing graduates' oral and written literacy, as well as foreign experience in this regard. It is necessary to clearly define the criteria at which level of knowledge of the native language a graduate of a general secondary school has the right to study in higher education institutions (as well as in which higher education institution, depending on the differences in level). This requires the need to reform the assessment and testing system and indicates the need to introduce tests such as interviews and writing creative work (such as a motivational letter, essay, etc.) in higher education institutions.

Key words: mother tongue, education, quality and efficiency, state language, prestige and authority.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается необходимость разработки поэтапной системы оценки знаний узбекского языка и использования современных передовых методов и средств проверки устной и письменной грамотности выпускников, а также зарубежный опыт в этом направлении. Необходимо четко определить критерии, при каком уровне знания родного языка выпускник средней общеобразовательной школы имеет право обучаться в высших учебных заведениях (а также в каком вузе, в зависимости от различий в уровнях). Это обуславливает необходимость реформирования системы оценки и

тестирования и указывает на необходимость внедрения в высших учебных заведениях таких тестов, как собеседования и творческое письмо (например, мотивационные письма, эссе и т. д.).

Ключевые слова: родной язык, образование, качество и эффективность, государственный язык, престиж и авторитет.

O'zbekistonda barcha jabhalarda kechayotgan islohotlar jarayoni ta'lim sohasini tobora kengroq va chuqurroq qamrab olmoqda. Xususan, bu yili ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida fizika bilan bir qatorda xorijiy tillar tanlanishi e'tirofqa sazovordir.

Shu o'rinda beixtiyor o'tgan asr boshidagi ma'rifat fidoyilari – jadid bobolarimizning g'oya va qarashlari yodga tushadi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy dunyo donishmandlari asarlaridan xabardor bo'lish, jahon adabiyoti durdonalaridan chinakamiga lazzatlanish, shuningdek, zamonasini anglash, taraqqiyot uchun chet tilini bilish o'ta muhimligini ta'kidlaydi. Chunonchi, jadidlar yetakchisi millat farzandlari o'z na'fi, jamiyatda muhim mavqe va obro'ga ega bo'lishi uchun xorijiy tilni bilishi zarurligi haqida so'zlab, qat'iyat bilan "Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak", deya bong urgan edi.

Mamlakatimizda til masalasiga ko'rsatilayotgan e'tibor, xususan, davlat tilining nufuzi va obro'sini ko'tarish, ona tilimizni asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlar o'z mohiyat-e'tibori bilan ma'rifatparvar bobolarimizning ushalmagan orzu-armonlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi amaliy harakatlar ekanligi jihatidan beqiyosdir. Barchaga ma'lumki, jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayonida, dunyo bozoriga dadil va faol kirib borilayotgan pallada xorijiy til bilimlariga ehtiyoj ortishi tabiiy. Shu bois bugungi kunda soha mutaxassisining har tomonlama yetukligi mezonlari o'z ona tili bilan bir qatorda, bir emas, bir necha chet tilini bilishi lozimligini taqozo etmoqda. Shu yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi ana shu dolzarb masalaga bag'ishlandi.

Milliy ta'lim tizimimiz jiddiy islohotlarga muhtoj ekanligi ayni haqiqat. Xususan, hozirgi kunda kadrlarning til savodxonligi darajasi talabga javob bermayapti. Og'zaki va yozma nutq madaniyati yuqori, mantiqiy fikrlash va uni ifoda eta olish ko'nikmalariga ega, nutq uslublari farqlay oladigan, fikrini usluban to'g'ri bayon eta oladigan, tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllangan mutaxassisga ehtiyoj katta. Bu borada bir qator masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Davlat tomonidan til ta'limiga ko'rsatilayotgan e'tibor hamda g'amxo'rlik, bu borada amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan sa'y-harakatlar mazkur soha mutaxassislari, kasb egalari qalbida minnatdorchilik tuyg'usi uyg'otishi bilan birga, ular zimmasiga jiddiy mas'uliyat va javobgarlik hissi ham yuklaydi. Til o'qitishning

amaldagi holati va ta'lim beruvchilar bilim darajasining yetarli darajada emasligi, “bugungi kunda oliygohlardagi 78 foiz professor-o'qituvchilarning chet tilini bilish darajasi qoniqarsiz ahvolda ekani” jiddiy tashvish uyg'otadi.

O'z ona tilining qonuniyatlari hamda qoidalarini mukammal egallamagan talabadan xorijiy tilni yuksak darajada egallashni talab qilish mushkul. Shu bois o'rta maktabda ona tilini o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish nafaqat davlat tilining nufuzi va obro'sini saqlab qolishga xizmat qiladi, balki talaba yoshlarning chet tilini talab darajasida egallashlari uchun asos bo'ladi. Buning uchun o'zbek tili bilimlarini baholashning bosqichli tizimini ishlab chiqish va bitiruvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini tekshirishning zamonaviy ilg'or usullari va vositalaridan, bu borada xorij tajribasidan foydalanish zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisi ona tili bilimining qaysi darajasida oliy o'quv yurtlarida (shuningdek, darajasidagi farqlarga qarab, qaysi oliy o'quv yurtida) o'qishga haqli bo'lishining mezonlarini aniq belgilab olish zarur. Bu esa baholash va test tizimida islohotlar qilish zaruratini taqozo etmoqda va oliy ta'lim muassasalarida suhbat va ijodiy ish (motivatsion xat, insho, esse kabi)lar yozish kabi sinovlarni joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Til bilimlariga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga qabul qilishda, xususan, ta'lim tizimiga ishga olishda chet tili (ayniqsa, rus va ingliz tillari)ni bilish darajasini tasdiqlash (sertifikatlash) mexanizmi joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, o'z navbatida, o'qituvchining kasbiy kompetentligini baholashning aniq tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, malaka oshirish kurslari samaradorligi va o'quv jarayoni bilan uzviyligini ta'minlash lozim.

Mualliflar guruhi kuchli metodist mutaxassislar va xorijiy mutaxassislardan tashkil topishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy metodikada til ta'limi maqsadi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompetensiyalar, xususan, kommunikativ, lisoniy, madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Talaba aynan ushbu kompetensiyalarga ega bo'lgandagina nafaqat, muloqotda, balki o'z sohasi doirasida ham tilni mukammal egallagan, har tomonlama savodli mutaxassis bo'lib yetishadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida tillarni o'qitish dasturlarini bakalavrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan umumiy malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va u yoki bu kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallangan maxsus fanlarni tashkil etish, ya'ni soha tilini chuqurroq egallashlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Xorij tajribasini o'rganadigan bo'lsak, oliy ta'lim dasturlariga yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bir qator fanlar kiritilgan. Xususan, “Nutq o'rganishga kirish”, “Yozma nutq”, “Siyosiy nutq”, “Ommaviy muomala nutqi”, “Ijtimoiy nutqiy aloqa”, “Yuristning yozma nutqi”. “Xizmat yozishmalari”, “Lingvomadaniyat”, “Diplomatik xatlar” kabi. Oliy ta'limda rus, ingliz va boshqa chet tillarida erkin savodli fikrlay olish

ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlarini kiritish orqali talabaning ma'lum malaka ko'nikmalari, xususan, soha tili, rasmiy yoki ilmiy nutq, yozma nutq savodxonligi, nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shakllantirish mumkin. Shu maqsadda til o'qitishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan umumiy malaka talablaridan kelib chiqqan holda til bo'yicha ixtisoslikka yo'naltirilgan bunday o'quv darslik va qo'llanmalarini ishlab chiqish oldimizda turgan eng birinchi vazifalarimizdan biridir. Bunda tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov G. Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. — T.: «O'zbekiston», 2002.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. - T.: «O'qituvchi», 1996.
3. Aliyev A., Nazarov K. O'zbek tili ma'lumotnomasi. — T.: «Fan», 1992
4. Zikrillayev G',N O'zbek tili morfologiyasi—Buxoro, 1994.
5. Zikrillayev G'.N . va b .Istiqlol va ona tili ta'limi. (To'plam). –Toshkent: “Fan”, 2000.
6. Zikrillayev G'. N. Istiqlol va adabiy til. –Toshkent: “Fan”, 2004.